

MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALAR SOHALARI MOLIYA BOZORINING KELAJAK LOKOMOTIVI SIFATIDA.

Batirov Farxad Bakitovich

Toshkent moliya instituti

“Umumiqtisodiy fanlar” kafedrasida o‘qituvchisi

+998971188908

E-mail: tfibatirovf@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada moliya-bank sohasida moliyaviy texnologiyalarining tutgan o‘rni, ya‘ni paydo bo‘lgan muammolar va ularning yechimini topishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari(AKT)dan foydalanishga bag‘ishlanadi. Jumladan, elektron tijoratning pandemiya (dunyoda va keyinchalik O‘zbekiston Respublikasida ham Kovid-19 koronavirus infeksiyasining tarqalishi bilan bog‘liq) davrida rivojlanishi, turli turdagi (moliya-bank sohasidagi dasturiy) mahsulotlar, hamda bugungi kungacha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar (yangi qonun hujjatlari) ham ko‘rib chiqiladi.

Tayanch so‘zlar: AKT, moliya-bank sohasi, distantsiyadan (masofaviy), bank mahsulotlari, Bank-Mijoz, Internet-banking, SMS - banking, kompyuter, mobil telefon, bank operatsiyalari, bank xizmatlari, bank plastik kartalari, tranzaksiya, bank ilovalari (dasturiy ta‘minot), Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi yagona elektron platformasi – www.oilakredit.uz, “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali - www.my.gov.uz, SMS-xabar, elektron pochta, shaxsiy kabinet, Elektron raqamli imzo (ERI), skoring baholash, marketpleys, identifikatsiya.

Аннотация: В данной статье обсуждаются вопросы касательно финансовых технологий в финансово-банковской сфере, возникшие проблемы и их решения с помощью информационных технологий, развитие электронной коммерции в период пандемии (связанной с вспышкой коронавирусной инфекции COVID-19 по всему миру и в дальнейшем в Республики Узбекистан), изучаются различные

виды продуктов (банковских), а также рассматриваются нормативно-правовые акты (новое законодательство) принятые до сегодняшнего дня.

Ключевые слова: информационно - коммуникационные технологии(ИКТ), финансово-банковская сфера, дистанционно (удалённо), банковский продукт, Банк-Клиент, Интернет-банкинг, SMS-банкинг, компьютер, мобильный телефон, банковские операции, банковские услуги, банковские пластиковые карты, транзакции, банковские приложения, Единая электронная платформа развития семейного предпринимательства – www.oilakredit.uz, информационная система «Единый реестр социальной защиты», Единый портал интерактивных государственных услуг - www.my.gov.uz, СМС - сообщения, электронная почта, персональный кабинет, электронная цифровая подпись (ЭЦП), скоринг оценка, маркетплейс, идентификация.

Annotation: The article presents financial technologies in the financial and banking sector, some problems and decision of problems with electronic communication`s help. Give us information about banking products, also about e-commerce in the time of COVID-19 (also known as the coronavirus pandemic) in the Republic of Uzbekistan and around the world. The law of the Republic of Uzbekistan (new in legislation).

Keywords: Information communication technology, financial and banking sector, distant (remote), banking product, bank - client, internet - banking, SMS - banking, a computer, a mobile phone, banking operations, banking services, bank`s cards, transactions, bank`s applications (apps), Unified electron portal of family`s business development – www.oilakredit.uz, Unified register of social protection, Unified portal of interactive public services - www.my.gov.uz, SMS - message, e-mail, personal cabinet, electronic signature, scoring assessment, marketplace, identification.

Kirish O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisida Sh.M.Mirziyoyev: “Bugungi sharoitda eng ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Bu sohada qabul qilingan Milliy dasturga muvofiq, telekommunikatsiya texnologiyalarini,

aloqa tizimlari va infratuzilmasini yanada rivojlantirish, informatsion tizimlar komplekslari va “Elektron hukumat” axborot bazasini shakllantirishimiz kerak”²⁸.

XXI asr axborot - kommunikatsiya texnologiyalari asridir. Mavzuning dolzarbligi, moliyaviy texnologiyalar moliya bozorining ajralmas qismiga aylanib qolganligi va elektron moliyaviy texnologiyalarisiz keyingi rivojlanishni tasavvur etib bo'lmasligida namoyon bo'ladi.

Moliyaviy texnologiyalarda axborot – kommunikatsiyalaridan foydalanish, bu - simlarsiz aloqa o'rnatish va axborotlarni, shu jumladan audio va video ma'lumotlarni uzatish imkonini beruvchi dasturiy va texnik vositalar majmui tushuniladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

S.Elmirzayev, N.Shavkatov, N.Sherqo'ziyeva, A.Karimov, D.Abdirahimova, S.Omonovlar jamoasi fikricha Moliyaviy texnologiya - bu moliyaviy muammolarni hal qilish yo'llarini o'ylab topish jarayoni. Moliyaviy texnologiyalar texnologiyasini moliya sohasida qo'llashning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish zarur: 1) P2P kreditlash bankning chakana kreditiga muqobil sifatida. Bu yo'nalishning mazmun-mohiyati aholiga boshqa jismoniy shaxslardan qarz olish va o'zlari kredit berish imkonini beruvchi maxsus platformadan (smartfonga o'rnatilgan ilova) foydalanishdan iborat; 2) Raqamli banking – mobil va onlayn platformalar yordamida moliyaviy xizmatlarni amalga oshirish imkoniyati, bu bankning mijoz bilan ishlash sifatini oshiradi, vaqt va xarajatlarni tejaydi; 3) Elektron to'lov tizimlari va boshqalar.

A.T.Kenjabayev, M.M.Ikramov, A.SH.Allanazarovlarning fikricha “Axborot - kommunikatsiya texnologiyalari” kompyuterlashtirish umumiy yo'nalishi bilan bog'liq bo'lgan konseptual masalalar, iqtisodiy masalalarni qo'yish va ularni kompyuter yordamida yechish muammolari, axborotlarni uzatish tarmog'i xususiyatlari va unda ishlash kabi asosiy masalalar ko'rib chiqadi. Bunda kompyuterning tashqi qurilmalari, dasturlash asoslari, algoritmlashtirish va algoritmlar tuzish, blok-sxemalar bilan ishlash, biron-bir tilda dastur tuza olish va ushbu

²⁸ O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyevning 2016 yil 8 sentabrdagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi nutqi.

dasturlarni kompyuterga kiritish va ularni sozlash, dasturiy-texnik vositalarni, amaliy dasturlarni, tizimli dasturiy ta`minot komponentlarini hamda dasturlashtirish usullari bilan bog`liq.

I.P.Potyoxina: “Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining tarqalishi va axborot infratuzilmasining rivojlanishi iqtisodiyotning umumiy raqobatbardoshligini oshiradigan yangi biznes modellarini yaratishga yordam beradi”.


A.A.Azlarova Tijorat banklari tomonidan AKT (raqamli iqtisodiyot) dan foydalanishning asosiy belgilari: yuqori darajada avtomatlashtirilganlik, elektron hujjat almashinuvi, buxgalterlik va boshqaruv tizimlarining elektron integratsiyalashuvi, ma`lumotlar elektron bazalari, CRM (mijozlar bilan o`zaro munosabatlar tizimi) mavjudligi, korporativ tarmoqlar va boshqalardan iborat[5], deb hisoblaydi.

Natija va muhokama

Moliyaviy texnologiyalar - masofaviy bank xizmatlari sifatida. Masofadan turib ko`rsatilayotgan xizmatlar, turli bank operatsiyalari misol qilib ko`rsatishimiz mumkin. Buning uchun bankka tashrif buyurish shart emas, balki kompyuter yoki mobil telefonning o`zi kifoya bo`ladi. Masofaviy bank xizmatlari (Bank-Mijoz, Internet-banking, SMS – banking, mobil ilova, elektron platforma va boshqalar) dan foydalanuvchilar soni (1-diagramma).

Diagramma 1.

Masofaviy bank xizmatlari (Bank-Mijoz, Internet-banking, SMS – banking, mobil ilova, elektron platforma va boshqalar) dan foydalanuvchilar soni



*Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan*²⁹

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2018-yilda masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni - 7 959 107 nafarni, 2019-yilda esa 10 153 458 nafar (o'sish +2 194 351) ni tashkil etgan; 2020-yil - 14 571 094 (bu o'tgan yilga nisbatan +4 417 636 taga ko'p); 2021-yil 20 203 384 (o'sish +5 632 290); 2022-yil - 30 000 914 (bu o'tgan yilga nisbatan +9 797 530 taga ko'p); va 2023-yilda esa - 44 099 600 (o'sish +14.098.686) ta foydalanuvchini tashkil qildi. Shunday qilib, masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni 2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 2019-yilning shu davriga nisbatan 5,5 baravar oshib, 44 million foydalanuvchini tashkil etdi.

Moliyaviy texnologiyalar shunchalik rivojlanganki, bankka bormasdan turib, bankning barcha xizmatlaridan foydalanish mumkin. Jumladan, mobil ilova orqali omonat ochish (milliy va xorijiy valyutada), to'lovlarni amalga oshirish (kommunal, davlat xizmatlari va boshqalar uchun), kredit olish (mikroqarz), bank plastik kartalari (VISA – AQSh \$ dollaridagi, Mastercard - yevro € valyutasidagi, MIP – Rossiyaning rubl ₸ valyutasidagi bank kartalari) ga buyurtma berish yoxud virtual yaratish, bank kartalari o'rtsida o'tkazmalarni bajarish (P2P – “people to people“, ya'ni “jismoniy shaxs jismoniy shaxsga”), boshqa davlatlarga xalqaro pul jo'natmalari (“Zolotaya korona”, “Money Send”, “VISA Direct”), konversiya operatsiyalari (bir valyutani boshqa valyutaga almashtirish) va boshqalar shular jumlasidandir. Bankning mobil ilovasidan foydalanishda, avval masofadan turib biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) dan o'tish zarur. Bunda siz bilan oferta shartnomasi tuziladi va siz mijoz sifatida bank tizimida ro'yxatdan o'tgan hisoblanasiz.

Huddi shunday Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (YIDXP) shaxsni Mobil-ID tizimi ilovasi orqali identifikatsiyalashi mumkin. Shundan so'ng foydalanuvchilar elektron raqamli imzo (ERI)ni qo'llamasdan ham barcha davlat xizmatlaridan foydalanishlari mumkin.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki: www.cbu.uz.

O‘zbekiston Respublikasi hududida 2020-yilning 16-martidan boshlab koronavirus infeksiyasi (KOVID - 19) tarqalishining oldini olishga qaratilgan maxsus chora-tadbirlar (karantin) joriy etildi. Bu davrda “temir daftar”, “O‘zbekistonda kambag‘allik” kabi tushunchalar paydo bo‘ldi³⁰.

Idoralararo (*Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Soliq qo‘mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi; Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Ijtimoiy himoya milliy agentligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi; Sog‘likni saqlash vazirligi; Ichki ishlar vazirligi; Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi; Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi; Transport vazirligi; Adliya vazirligi, Adliya vazirligi huzuridagi Personallashtirish agentligi; Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi; Markaziy bank; ATB “Xalq banki”; O‘zbekiston Banklari assotsiatsiyasi*) o‘zaro elektron axborot almashinuvi yo‘lga qo‘yilgan, kam ta‘minlangan oilalarni aniqlash, ularga moddiy yordam va nafaqa tayinlash hamda murojaat qiluvchilar hisobini yurituvchi “Ijtimoiy himoya yagona reyestri” axborot tizimi (“Yagona reyestr” AT) ishga tushdi³¹. Bugungi kunda har bir tumanda, har bir mahalla fuqarolar yig‘inida «Inson» ijtimoiy xizmatlar markazlarining ijtimoiy xodimlari mavjud bo‘lib, ijtimoiy yordamga muhtoj bo‘lgan fuqaro (ariza beruvchining) ma‘lumotlari so‘rovnomada to‘ldiriladi va “Yagona reyestr” ATga yuboriladi.

“Yagona reyestr” AT murojaat qiluvchining haqiqatdan ham kam ta‘minlanganligini aniqlashda yordam beradi, ya‘ni u yerda oylik maosh, pensiya, stipendiya, mol-mulk, avtomashina, ishsizlikni tasdiqlovchi ma‘lumotlarni olish mumkin.

³⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi «O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida»gi PQ-4653-son qarori.

³¹ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktabrdagi "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi VMQ-654-son qarori.

2022-yilning 1-yanvaridan mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha hokim yordamchilari tomonidan har bir mahallaning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda, "drayverlari" ("o'sish nuqtalari")ni aniqlab olinib, rivojlantirilish boshlanadi.

2022-yil 1-martdan boshlab hokim yordamchisi tavsiyalari asosida "Agrobank" ATB, "Xalq banki" ATB va "Mikrokreditbank" ATB tomonidan yagona elektron platforma orqali³² kredit ajratish to'liq elektron formatda amalga oshiriladi (1-Jadval). Bunda:

- kredit oluvchi tomonidan "marketpleys" tizimi orqali ta'minotchi (mahsulot yetkazib beruvchi/xizmat ko'rsatuvchi) mustaqil ravishda tanlab olinadi;
- ta'minotchinang tovar va xizmatlari "marketpleys" (smart market)da erkin joylashtiriladi va savdo-sotiq ushbu platforma orqali amalga oshiriladi;
- smart marketda yetkazib beruvchilarning xizmatlari foydalanuvchilar tomonidan baholanadi;
- O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqini himoya qilish qo'mitasi Soliq qo'mitasi bilan birgalikda davlat dasturlari orqali ajratilgan kreditlar hisobiga mahsulotlar yetkazib berilishi va xizmatlar ko'rsatilishini ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida "marketpleys" savdo platformasida raqobatni shakllantirish, ta'minotchi tomondan mahsulot yetkazib berish va xizmatlarning o'z vaqtida ko'rsatilishi, narxlarning sun'iy oshib ketmasligini nazorat qilishadi.

1-Jadval

Bugungi kungacha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlardagi o'zgartirish va qo'shimchalar

³² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyuldagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasi orqali kreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi VMQ-373-son qarori.

T/r	Normativ-huquqiy hujjat nomi	Eski tahriri	Yangi tahriri
1	2018-yil 7-iyundagi “Har bir oila-tadbirkor” dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3777-son qarori	eng kam ish haqining yuz ellik baravarigacha miqdorda - oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar rahbarlari va mahalla fuqarolar tig‘ini tavsiyanomalariga asosan ajratiladi	33 million so‘mgacha bo‘lgan miqdorda — o‘zini o‘zi band qilgan jismoniy shaxslarga (asosiy ish joyiga ega shaxslar bundan mustasno) hamda belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan kichik tadbirkorlik subyektlariga har bir mahallaga biriktirilgan hokim yordamchisining tavsiyalariga asosan ajratiladi
2	2021-yil 20-dekabrda «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-55-son qarori	oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan aholi hamda tadbirkorlik sub'ektlariga — 3 oydan 6 oygacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 3 yilgacha muddatga imtiyozli kreditlar yillik 14 foiz stavkada ajratiladi	oilaviy tadbirkorlik, daromad topishga qaratilgan muayyan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish va faoliyat turini kengaytirish istagini bildirgan o‘zini o‘zi band qilgan shaxslarga (asosiy ish joyiga ega shaxslar bundan mustasno) hamda tadbirkorlik subyektlariga 6 oydan 1 yilgacha bo‘lgan imtiyozli davr bilan 3 yildan 4 yilgacha muddatga imtiyozli kreditlar yillik 14 foiz stavkada ajratiladi

3	2021-yil 20-dekabrda «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-55-son qarori	chorvachilik (qoramol, qo‘y, echki), baliqchilik, quyunchilik, asalarichilik, kurkachilik va parrandachilik, biogumus ishlab chiqarish, «dala do‘konlari»ni qurish va ko‘chma muzlatkichlarni o‘rnatish uchun — 1 yilgacha imtiyozli davr bilan 3 yil muddatga imtiyozli kreditlar yillik 14 foiz stavkada ajratiladi	chorvachilik (qoramol, qo‘y, echki), baliqchilik va parrandachilik (tuxum yo‘nalishi) uchun — 1 yilgacha imtiyozli davr bilan 3 yildan 4 yilgacha muddatga imtiyozli kreditlar yillik 14 foiz stavkada ajratiladi
4	2021-yil 20-dekabrda «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-55-son qarori	chorvachilikni rivojlantirish yo‘nalishida kreditlar kamida 10 boshdan 50 boshgacha chetdan keltirilgan yoki mahalliyashtirilgan (naslchilik xo‘jaliklarida yetishtirilgan) va chorva hayvonlarini identifikatsiyalash tizimida aks etgan chorva mollari (qoramol, qo‘y, echki) boqish uchun ferma tashkil etishga beriladi.	chorvachilikni rivojlantirish yo‘nalishidagi kreditlar chetdan keltirilgan yoki mahalliyashtirilgan (naslchilik xo‘jaliklarida yetishtirilgan) va veterinariya bo‘limi tomonidan identifikatsiya qilingan (birkalash usuli) chorva mollari (qoramol, qo‘y, echki) boqish uchun ajratiladi.
5	2023-yil 31-yanvarda «Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida aholining biznes tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashni	hokim yordamchisining tavsiyasiga ko‘ra kredit summasining 10 million so‘mgacha bo‘lgan qismi (hunarmandlar uchun 20 million so‘mgacha) bank kartalariga (naqdashtirish imkoniyatini cheklagan holda) o‘tkazib beriladi	hokim yordamchisining tavsiyasiga ko‘ra kredit summasining 10 million so‘mgacha bo‘lgan qismi (hunarmandlar uchun 20 million so‘mgacha) bank kartalariga o‘tkazib beriladi

	yangi bosqichga olib chiqishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-39-son qarori		
6	2023-yil 14-sentabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-306-son qarori	2024-yil 1-yanvardan boshlab oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar 3 yilgacha muddatga 6 oylik imtiyozli davr bilan yillik Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada ajratilishi belgilansin.	2024-yil 1-yanvardan boshlab oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida kreditlar 3 yildan 4 yilgacha muddatga 6 oydan 1 yilgacha imtiyozli davr bilan yillik Markaziy bankning asosiy stavkasidan 4 foizlik punkt yuqori stavkada ajratilishi belgilansin
7	2024-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-122-son qarori	Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, kasbga o‘qitish va bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan ikki yillik imtiyozli davr bilan besh yil muddatga yillik 14 foiz stavkada jami 100 million AQSh dollari ekvivalentida banklarga kredit resurslari aratiladi	Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish, kasbga o‘qitish va bandligini ta'minlash, ularni tadbirkorlikka keng jalb etish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi hisobidan uch yillik imtiyozli davr bilan yetti yil muddatga yillik 14 foiz stavkada jami 100 million AQSh dollari ekvivalentida banklarga kredit resurslari aratiladi

Muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi asosida ishlab chiqilgan³³

³³ O‘zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz.

Joriy yilning 9-aprelidagi Prezident Sh.Mirziyoyevning Jizzaxga tashriflarida “Biznesg birinchi qadam” kreditlarini 17 (o`n yetti) million so`mgacha oshirilishi haqida so`z yuritganlar (avval besh million so`m edi).

AKT rivojlanganligidan foydalanib, masofadan nohalol ish yurituvchilar foydalanuvchilar ham bor. Tuman (shahar) mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari tomonidan mahsulot/xizmatni yetkazib beruvchini marketpleys tizimida ishtirok etishdan chetlatish va Nohalol ta`minotchilar reyestriga kiritish sabablari:

- mahsulot/xizmat yetkazib beruvchi va bankdan qarz olgan fuqaro yoki tadbirkorlik sub`yekti o`zaro til biriktirib pul mablag`larini naqdlashtirib, maqsadsiz ishlatgan bo`lsa;

- mahsulot/xizmat yetkazib beruvchisi tomonidan taklif qilinayotgan mahsulot yoki xizmati texnik talablarga javob bermasa;

- unga nisbatan to`lovga qobiliyatsizlik tamoyillari qo`llanilgan bo`lsa;

- mahsulot/xizmat yetkazib beruvchi kredit ajratilishi jarayonida bankdan qarz olib biror-bir mahsulot xarid qilmoqchi bo`lgan haridorga ta`sir o`tkazish maqsadida qarz oluvchining, tijorat banklari xodimiga har qanday shakldagi haqni, yoxud istalgan boshqa qimmatbaho buyum taklif qilsa yoki bersa.

Mahsulot/xizmat yetkazib beruvchilar quyidagi hollarda marketpleys tizimida avtomatlashtirilgan holda Nohalol ta`minotchilar reyestriga kiritiladi:

- soliq hisobotlarida tegishli mahsulot kirim bo`lmaganida;

- mahsulot/xizmat yetkazib beruvchi tomonidan besh va undan ortiq shartnoma bo`yicha mahsulotlar yetkazib berilganligi to`g`risida hisob-faktura rasmiylashtirilgan bo`lsa, lekin hokim yordamchisi tomonidan haqiqatda mahsulot yetkazib berilmaganligi to`g`risida dalolatnoma rasmiylashtirilganida;

- soliqlar to`lash bo`yicha muddati o`tgan qarzdorlik mavjud bo`lsa;

- yetkazib berilgan mahsulot/xizmat xaridorlarning o`ttiz foizidan ko`prog`i tomonidan sabiy baholanganda.

Xulosa Har bir mahallaning hokim yordamchisi o'ziga biriktirilgan mahalla bo'yicha dasturlar doirasida ajratilgan kreditlarning maqsadli sarflanishi va samaradorligini nazorat qiladi (*moliyaviy texnologiyalardan foydalangan holda. Jumladan, planshetdagi online-mahalla platformasi, Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishdagi yagona elektron platformasi – www.oilakredit.uz, marketpleys, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali - www.my.gov.uz, e-auksion) shuningdek, sektor rahbarlari va tijorat banklari bilan birgalikda kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishi yuzasidan tegishli chora-tadbirlar ko'radi.*

Har bir davlat xizmatchisi moliya-bank tizimi xodimi yoki boshqa kasb egasi bo'lishidan qat'iy nazar, moliyaviy axborot texnologiyalaridan foydalana olishni bilishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portali www.vacancy.argos.uz orqali ishga joylashmoqchi bo'lgan fuqaro ham moliyaviy texnologiyalar bo'yicha onlayn test topshiradi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy moliyaviy texnologiyalar zamonaviy AKTdan foydalanishni talab qiladi. Moliyaviy texnologiyalar - moliyaviy xizmatlar bozorida banklar va vositachilar kabi an'anaviy moliya institutlari bilan raqobat qilish uchun texnologiya va innovatsiyalardan foydalanadigan kompaniyalardan iborat bo'lgan soha³⁴. Moliyaviy texnologiyalardan to'g'ri va oqilona foydalanish barqaror taraqqiyotga olib keladi, moliya bozorini moliyaviy rag'batlantiradi. Bu nafaqat moliya-bank (*bunda masofaviy xizmatlar ko'rsatilishi, qayergadir borish yo'l haqqi harajatlarini qilmaslikka olib keladi, ya'ni moliyaviy chiqimlarni minimallashtiriladi hamda navbatda turib, yoqotishimiz mumkin bo'lgan qimmatli vaqtimiz tejaladi*) sohasida, balki ishlab-chiqarish (*avtomatlashtirilgan asbob-uskuna, ya'ni robotlardan foydalanish*), xizmat ko'rsatish (*AKT nou-xaularidan foydalanish*), ta'lim (*muassasalarning auditoriyalar va kutubxonalarini internet tarmog'iga ulangan zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlash*), qishloq ho'jaligi (*smart texnologiyalarining qo'llanishi tabiat resurslarini tejashga olib keladi*), koinotni o'rganish (*da inson hayoti*

xavf ostiga qo'yilishi mumkin bo'lgan noma'lum joylarga masofadan boshqariladigan robotlarni yuborish) va boshqa ko'plab sohalarda ijobiy samara beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi «[O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida](#)»gi PQ-4653-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 8-iyuldagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlarining yagona elektron platformasi orqali kreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi VMQ-373-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 21-oktabrdagi "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ-654-son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Sh.M.Mirziyoyevning 2016 yil 8 sentabrdagi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatning qo'shma majlisidagi nutqi.
5. S.Elmirzayev va boshqalar. "Moliya bozori va moliyaviy texnologiyalar": Darslik – T.: "Iqtisod-moliya", 2022. – 404 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki: www.cbu.uz.
7. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi: www.lex.uz